



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHRI HOKIMINING QARORI

2025-yil 18-noyabr

837-14-0-Q/25

Toshkent shahar hokimligi

Toshkent shahridagi bozorlar va savdo komplekslarining to‘lov tizimlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 21¹-moddasiga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2010-yil 26-apreldagi PQ-1326-son qaroriga asosan hamda “Munitsipal aktivlarni boshqarish markazi” DUKning 2025-yil 6-oktabrdagi 01-1973-son murojaatini inobatga olib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. “Eski Juva dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori” aksiyadorlik jamiyatlarida to‘lovlarni elektron to‘lov tizimlari orqali undirish bilan bog‘liq barcha tashkiliy ishlar yakuniga yetkazilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2025-yil 1-dekabrdan boshlab “Mirobod dehqon bozori” va “Eski Juva dehqon bozori” aksiyadorlik jamiyatlarida undirib olinadigan bir martalik (bozor pattasi) to‘lovi, inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlar, bino va inshootlardan foydalanganlik uchun ijara to‘lovlari, umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lovlarni elektron tarzda qabul qilish amaliyoti joriy etilsin.

3. Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov), Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Toshkent shahar boshqarmasi (Z.Karayev), “Munitsipal aktivlarni boshqarish markazi” DUK (A.Razzoqov):

“Eski Juva dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori” aksiyadorlik jamiyatlari bilan birga jamiyatlarda undirib olinadigan bir martalik (bozor pattasi) to‘lovlari, inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlar,

bino va inshootlardan foydalanganlik uchun ijara to'lovleri, umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar qiymatini elektron tarzda qabul qilishni;

bozorlar va savdo komplekslarining rahbarlari bilan birga inventarlarni ijaraga berish va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan yangi miqdorlarni joriy etish bo'yicha belgilangan tartibda zarur tadbirlar o'tkazilishini ta'minlasin.

4. "Munitsipal aktivlarni boshqarish markazi" DUK (A.Razzoqov):

"Eski Juva dehqon bozori" va "Mirobod dehqon bozori" aksiyadorlik jamiyatlari rahbarlari bilan birga mazkur jamiyatlarda undirib olinadigan bir martalik (bozor pattasi) to'lovlarni, inventarlarni ijaraga berish va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to'lovlarni, bino va inshootlardan foydalanganlik uchun ijara to'lovlarni, umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarni elektron tarzda qabul qilish;

bozorlar va savdo komplekslarining rahbarlari bilan birga inventarlarni ijaraga berish va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan yangi miqdorlar bo'yicha e'lonlarni bozorlar hamda savdo komplekslarining kirish qismlariga joylashtirish choralari ko'rsin.

5. Toshkent shahar hokimining "Toshkent shahridagi bozorlar va savdo komplekslarining ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymatining yangi miqdorlarini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 14-fevraldagi 101-14-0-Q/25-son qaroriga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

6. Toshkent shahar hokimining o'rinbosari (A.Xen), Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati (G.Kasimova) mazkur qaror rasmiy e'lon qilinishi va "www.toshkent.uz" veb-sahifasiga joylashtirilishini ta'minlansin.

7. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari B.Xaydarov zimmasiga yuklansin.

Toshkent shahar hokimi



Sh.Umurzakov

Toshkent shahar hokimining
2025-yil 18-noyabrdagi
837-14-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Toshkent shahar hokimining “Toshkent shahridagi bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining yangi miqdorlarini joriy etish to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi 101-14-0-Q/25-son qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Qarorning 4-ilovasi bilan tasdiqlangan “Bozorlar va savdo komplekslari tomonidan inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlarning miqdorlari”da:

a) 4.4.-kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

4.4.	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash uchun:		
-	yengil avtomashinalar uchun (haftaning dushanba – juma kunlari)	20 minutgacha	5 000
		40 minutgacha	7 000
		1 soatgacha	8 000
		2 soatgacha	9 000
		3 soatgacha	10 000
		4 soatgacha	14 000
		4 soat va undan ortiq vaqt uchun	15 000
-	yengil avtomashinalar uchun (haftaning shanba – yakshanba kunlari)	20 minutgacha	5 000
		40 minutgacha	7 000
		1 soatgacha	8 000
		2 soatgacha	9 000
		3 soatgacha	25 000
		4 soatgacha	35 000
		4 soat va undan ortiq	50 000

		vaqt uchun	
-	yuk avtomobillari uchun	20 minutgacha	7 000
		40 minutgacha	9 000
		1 soatgacha	10 000
		2 soatgacha	11 000
		3 soatgacha	12 000
		4 soatgacha	14 000
		4 soat va undan ortiq vaqt uchun	18 000

”
”

b) 5.3.-kichik bandi quyidagi tahrir bilan to‘ldirilsin:

“

5.3.	Bozorlar va savdo komplekslari hududida tijorat maqsadida video/tasvirga olishda foydalanish (videorolik, reklama roligi, klip yoki boshqa usulda video/tasvirga olish, bundan xorijdan kelgan turistlar va ommaviy axborot vositalari mustasno hisoblanadi)	1 soati	5 000 000
------	--	---------	-----------

”
.